

XVI-XIX ASRLARDA O'RTA OSIYO-BUYUK BRITANIYA DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXINING MUAMMOLI DAVRLARI

Rustamboyev Islomjon Doniyor o'g'li

Oriental universiteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi

islomjonrustamboyev@gmail.com

Baxromova Maftuna Odiljon qizi

Oriental universiteti Tarix fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1562349>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta Osiyo va Buyuk Britaniya davlati o`rtasidagi diplomatik munosabatlar, ayniqsa ikki davlat o`rtasidagi elchilik aloqalari muhim ahamiyati va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Unda Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya va Eron kabi davlatlarning mintaqadagi geosiyosiy manfaatlari va Buxoro amirligi bilan bo`lgan siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalar yoritiladi.

Kalit so`zlar: S.V. Jukovskiy Jenkinson, G.Tompson, R.Xogqlar, Murkroft, Antoniy Jenkinson , Buxoro, Urganch, Balx , Tibet.

Abstract. This article analyzes the diplomatic relations between Central Asia and the United Kingdom, particularly focusing on the significance and development of embassy-level connections between the two regions. It also highlights the geopolitical interests of countries such as the Russian Empire, the United Kingdom, and Iran in the region, as well as their political, economic, and cultural relations with the Bukhara Emirate.

Keywords: S.V. Zhukovsky, Jenkinson, G. Thompson, R. Hogg, Murcroft, Anthony Jenkinson, Bukhara, Urgench, Balkh, Tibet.

Аннотация. В данной статье анализируются дипломатические отношения между Центральной Азией и Великобританией, особенно акцентируется внимание на значении и развитии посольских связей между двумя регионами. Также освещаются геополитические интересы таких государств, как Российская империя, Великобритания и Иран в регионе, а также их политические, экономические и культурные отношения с Бухарским эмиратом.

Ключевые слова: С.В. Жуковский, Дженкинсон, Г. Томпсон, Р. Хогг, Муркрофт, Энтони Дженкинсон, Бухара, Ургенч, Балх, Тибет.

Bizga ma'lumki, O'rta Osiyo o`zining bebaho tarixiga ega. Bu bebaholik ko`p jihatlar bilan dunyo xalqlarida qiziqish uyg'otib kelgan. Shu jihatlardan biri sifatida O'rta Osiyoning strategik jihatdan qulay hududda joylashganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Mana shunday qulay strategik hudud XVI asrdan boshlab Angliya va Rossiya kabi davlatlarni o`ziga tortadi. Endi bu davlatlar bu hududga qandaydir yo'llar bilan suqulib kira boshlashdi. Ular o`z vakillarini ko`proq savdogar, elchi qiyofasida yo'llashdi.

Ana shunday shaxslardan biri Antoniy Jenkinson bo`lib, u 1558-yili Buxoroga rus podshosining guvohnamasi bilan 1555-yil tuzilgan "Moskva savdo kompaniyasi" vakili bo`lib

keladi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini “Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat” nomli esdaliklarida bayon etadi ”.¹

Rus olimi S.V. Jukovskiy Jenkinsonning Buxoroga borishi haqidagi fikrlarini bayon qilib quyidagicha yozadi: “Aytish qiyin, nahotki Jenkinsonchindan ham Ivan Grozniyi o`z tomoniga og`dirib olgan, va go`yo Ivan Grozniy inglizlarga yoqish uchun uni O`rta Osiyoga borishiga ruxsat bergan. Jenkinsandan balki podsho (Ivan Grozniy – I.K.) foydalangandir va uni, 1557-yilda Rossiyada erkin savdo qilishlari uchun ruxsat so`rab hadya va tortiqlar bilan Moskvaga kelgan Xiva va Buxoro elchilik missiyasiga javob tariqasida Jenkinsonni Buxoro va Xivaga elchi qilib yubormadimikan?”. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, aytish mumkinki, Jenkinson Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi. O`ylaymizki, Jukovskiyning ikkinchi fikri haqiqatga yaqin bo`lsa kerak, ya`ni podsho O`rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o`rnatish maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorliq bergan. Jenkinsonning Rossiya nomidan O`rta Osiyoga jo`natilishi Rossiyaning O`rta Osiyo savdosida ma`lum bir manfaati bo`lgani tasdiqlaydi va Rossiya bilan O`rta Osiyo o`rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yo`l ochgan. 1558-yil 23-dekabrdan Jenkinson Rossiya podshosi Ivan IV ning ishonch yorlig`i bilan Buxoroga keladi va u yerda savdoning holati bilan tanishadi. Jenkinson Moskvaga qaytayotganida u bilan birga Buxoro, Urganch, Balx elchilari ham birga kelishgan.² Ma`lumki, XVI asrdan boshlab O`rta Osiyo xonliklarining Moskva bilan savdo aloqalari rasmiy tus ola boshlaydi. Bizni bu o`rinda Jenkinson tomonidan Buxoroning qo`shni Sharq davlatlari bilan aloqalari haqida bergen ma`lumotlari ahamiyatlidir.

Jenkinsonning Buxoroga kelishi arafasida O`rta Osiyo Hindiston va Eron bilan faol savdo iqtisodiy aloqalar o`rnatgan edi. Jenkinson, “Buxoroda savdogarlarning har yilgi yig`ilishi bo`lib, u yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar katta karvonlar bilan kelib yig`ilib turadi”, – deb yozgan edi.³

Bu holat XVI asr o`rtalarida Buxoro qadimgiday xalqaro savdo markazlaridan biri bo`lib qolganligidan dalolat beradi. Lekin ba`zi mualliflar ushbu masalaga shubha ko`zi bilan qaradilar. Masalan, M. Yo`ldashev -“Jenkinsonning Buxoro savdosi haqidagi ma`lumotlarini to`liq haqiqat deb bilish qiyin. Aftidan savdoda raqobatchi bo`lishi mumkin bo`lgan savdogarlarni bu savdodan chalg`itmoqchi bo`lgan bo`lsa kerak. Buxoroda har yili Hindiston, Eron, Buxoro, Rossiyadan kelgan savdogarlarning yig`ilishi bo`lib turadi, deb yozib, Jenkinson yana qo`shib qo`yadi, “go`yoki bu savdogarlar shu darajada qashshoqki, ular kam tovarlar olib kelishiga qaramay bu tovarlarni hatto uch yillab sotadi, shuning uchun bu yerda foydali savdo qilish uchun hech qanday ishonch yo`q”, – deb yozadi.

Ba`zi tarixchilarning fikricha, Jenkinson Angliya manufakturalarida to`qilgan movut matolarni O`rta Osiyoda sota olmagani uchun ataylab Buxorodagi hind savdogarlarining faoliyati va rolini pasaytirgan. 1734-yili Angliya bilan Rossiya o`rtasida Rossiya orqali sharq

¹Bondarevskiy G. L. The Great Game: A Russian Perspective. PO Box 35 Hastings. East Sussex, 2002. – 103 p.

² Брежнева С. Н. “Цивилизаторская Миссия” Как Оправдательный Нарратив Наступления России На Туркестан В Трудах Русских Ориенталистов: Конец XIX – Начало XX В // Издательство “Грамота” № 8(14) 2011,- 45-46

³Evgeny Sergeev. The Great Game, 1856-1907: Russo-British Relations in Central and East Asia. Baltimore, MD. - John Hopkins University Press. 2014.-552 p.

mamlakatlari bilan tranzit savdo yo`llaridan foydalanish haqidagi bitim tuziladi. Bitim imzolangach, darhol, Rossiya kompaniyasining ingliz vakillari Rossiya orqali Eronga boradigan qulay savdo yo`llarini qidira boshlaydilar va shu maqsadda O`rta Osiyo, Ozarbayjon va Eronga bir necha xufiya ekspeditsiyalari tashkil qildilar. Shu maqsadda, 1739-yili “Rus kompaniyasi”ning vakillari Djon El’ton va Mungo Gremlar Xiva va Buxoroga jo`natilgan edi. Lekin Nodirshoxning O`rta Osiyoga hujumi xavfi haqidagi xabarni eshitgach, ular Astraxandan to`g`ri Eronga ketishni afzal ko`rishgan. Bu boshlangan ishni yakuniga yetkazish maqsadida 1740-yil fevralda “Rus kompaniyasi” Xiva va Buxoroga yangi ekspeditsiya uyuştiradi. Uning tarkibida Georg Tompson va Regnal’d Xogg kabi josuslar bor edilar. ular Xiva va Buxoroda savdo-sotiq sharoitlarini o`rganishlari kerak edi. Mazkur ekspeditsiya Rossianing janubi-sharqiy chegaralari va Qozog`iston cho`llari orqali yo`lga tushadi. G.Tompson va R.Xogg larning kundaliklari Eronda bo`lgan “Rus kompaniyasi” savdogari Jonas Xonvey kitobida nashr qilingan. Bu kitobdan, muallifning va XVIII asrning birinchi yarmida Eronga kelgan boshqa yevropaliklarning yo`l kundaliklari o`rin olgan.⁴ Ushbu kitobdagi ma`lumotlar XVIII asrning 30 – 40-yillarida O`rta Osiyo shaharlari, Ozarbayjon va Erondagagi ichki va tashqi savdoning ahvoli, shaharlар hunarmandchiligi to`g`risidagi xabarlardan iborat. G. Tompson va R.Xogg 1740-yili 9-sentyabrdagi Yoyiq shahri orqali Qozog`iston cho`llari, Orol dengizining shimoliy-g`arbiy qirg`oqlari orqali o`tib Xivaga kirib kelishgan. Ingliz joslari Xivadagi ichki savdoning holatini tahlil qilib, ular faqat Buxoro va Eron bilan savdo qiladilar, hayvon, mo`yna va terilarni qirg`iz (qozoq) va turkmanlardan oladilar deb, xabar qiladi. Qirg`izlar va turkmanlar xivaliklar uchun xavfli qo`shni hisoblanishgan ekan. Xivada uncha ko`p bo`lmagan paxta ekilgan, o`rtacha sifatli qo`y terisi (qorako`l bo`lishi mumkin), uncha ko`p bo`lmagan xom ipak yetishtirgan va ipakdan mahsulot ishlab chiqarilgan.

Shunday qilib, ular Xivada ingliz sanoatini qiziqtiradigan xom ashyo manbai kam deb qayd etishadi. Hind tovarlariga kelsak, G.Tompson va R.Xogg bu yerda bo`lganlarida hind tovarlarini ko`rishmagan. Ular Xivaning Buxoro va Eron, hamda qo`shni ko`chmanchilar bilan savdo qilganliklarini e`tirof etishgan³⁷. Inglizlar Xivada o`zlarining tovarlari uchun bozor ham qidirgan, lekin izlanishlar natijasida ular Yevropa tovarlariga xivaliklarning ehtiyoji kamligini sezishgan. Shuning uchun bu yerda foydali savdo qilishga ko`zi yetmay, foydadan ko`ra sarf-xarajat miqdori oshib ketadi, deb hisoblashgan.⁵ Boj masalasida, musulmon bo`lmaganlarning tovarlaridan 5%, musulmonlarnikidan esa 2,5% boj solig`i olingan. Demak, ingliz tovarlari uchun imkoniyatlar ancha cheklangan bo`lgan. “Rus kompaniyasi” joslari Xivada, Nodirshox qo`shinlari Xivani egallahganigacha, ya`ni, 1740-yili 15-dekabrgacha qolishgan. Ular o`z tovarlarini eronliklarga sotib bo`lishgan, ammo pullarini hali olishmagan ekan. R.Xogg eronliklarga nasiyaga bergan mollarining pullarini olish maqsadida Xivada qolgan, so`ng Rossiya qaytmoqchi bo`lgan. G. Tompson esa Buxoroga jo`nagan. R.Xogg faqat 1741-yili aprel oyida Xivadan jo`nab ketishga muvaffaq bo`lgan. Yo`lda o`g`rilar tomonidan talangan R.Xogg Orenburg orqali 1742-yil bahorda Peterburgga yetib borgan.

⁴Фурсов К.А. Геополитика или экономика? Соотношение целей англо-русской экспансии в центральной азии в xix в.// BOCTOK (ORIENS) 2017 № 1. – 6-28.c.

⁵ Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – 590 p

Buxoroga kelgan G.Tompson savdo aloqalarining ilgarigi davrga nisbatan yomonlashganligini ko`radi. U Buxoroda yetishtiriladigan va ishlab chiqiladigan mahalliy mahsulot turlari bilan, Buxoro bozorlari va uning tashqi savdo aloqlari bilan qiziqadi. G.Tompson buxoroliklarning Yevropa tovarlariga ehtiyojini o`rganib, buxoroliklarning yevropa tovarlariga talabi kamligini, movut kabi tovarlardan faqatgina bosh kiyim tikishda foydalanishini aniqlagan. U Yevropa tovarlarini Buxoro bozorlariga olib kelib, tavakkal qilishdan foyda yo`q, degan xulosaga keladi.⁶

G.Tompson Buxoroda boj solig'i olinishiga o`z e'tiborini qaratgan. Buxoroda hamma keltiriladigan mollardan 1%, olib chiqiladigan mollardan esa 10% soliq olingan. Tinchlik davrlarida boj solig'idan keladigan foyda yiliga 1000 dukatni tashkil qilgan. Xuddi shunday, Xiva xoni xazinasiga tushadigan boj solig'I foydasi yiliga 100 dukatgacha etgan. Shundan ko`rinib turibdiki, Xivada Buxoroga nisbatan savdo aylanishi ancha past bo`lgan.

Bu kabi xolatni biz XVI asr o`rtalarida Xiva va Buxoroga kelgan A. Jenkinson ma`lomotlarida ham uchratgan edik. Bir asr muqaddam Jenkinsonning bergen fikrini G.Tomson va R.Xoglar ham tasdiqlab turibdi. Har ikkalasi Buxoro bozorlarida o`zlari olib kelgan movutga xaridor topa olishmagan va bu yerda Yevropa tovarlari narxi hu darajada pastki tavakkal qilib, xatarli yo`llar bilan tovarlarni olib kelib sotishdan foyda yo`q, degan xulosaga kelishgan.

Aftidan, G.Tompson va R.Xoglar ushbu ma`lumotlarning Rossiya orqali o`tishini hisobga olib, rus hukumatining va rus sanoat doiralarining diqqatini ataylab chalg`itishga uringan ko`rinadi. Mazkur ekspeditsiyadan keyin G.Tompson Buxoroga, R.Xogg esa Peterburga qaytib ketadi.

Xuddi shu davrda Ozarbayjon, Eron va Kaspiybo`yi viloyatlarining o`rganilishi natijasida ingлизлар бу xududda savdo qilish foydali deb bilishgan. Ular bu xududlardan nafaqat ingliz tovarlari uchun bozor, balki xom ashyo manbai sifatida foydalanishni afzal ko`rishgan.⁷

Yuqorida zikr etilgan D.Elton va M.Gremlarning ekspeditsiyasi o`z yo`nalishi bo`ylab vaziyatni o`rganib, ular Mashhadda savdo kontorasini ochib, u orqali ingliz mollarini Eron, Afg`oniston, Hindiston va O`rta Osiyoga tarqatish mumkin degan xulosaga keladilar. Buning uchun tovarlarni Londondan Peterburgga, so`ng Astraxan, u yerdan Kaspiy dengizi orqali Astrobod va so`ng Mashhadga olib kelishi kerak edi.

Shunday qilib, ekspeditsiyalar natijasida ingliz savdogarlari orzulariga erishgan. D.Elton va M.Gremlar Kaspiy dengizi bo`ylarida ingliz savdosini kengaytirishdan katta foyda olish mumkin deb hisoblashgan. Hatto Eron shoxi Nodirshoxning o`g`li Rizoqulidan “Rus kompaniyasi”ga savdo qilish uchun imtiyozlar berish haqida farmon ham olgan edi. Yuqoridagi ikkita kompaniya vakillarining bergen ma`lumotlarini tahlil qilish natijasida ularning bir biriga qarama-qarshi xulosaga kelishgani ma`lum bo`ldi. D. Elton bilan M. Grem Volga-Kaspiy savdo yo`li Eronga borish uchun juda qulay va bexavotir, hamda bu yerda, Eron va Ozarbayjon viloyatlarida ingliz savdosini kengaytirish Angliya uchun katta foyda keltiradi, deb hisoblashgan 1821–1825 yillarda Buxoroga jouslik maqsadida kelgan Angliyaning OstIndiya kompaniyasi

⁶ Халфин А.Н. Политика России в Средний Азии (1847-1868). – М.: Издательства восточной литературы, 1960. – 272 с.

⁷ XIAO WEI BOND. Guide to India Office Records relating to Central Asia.- The British Library Asia Pacific Africa Collections. 1998.-205 p

vakillari U. Murkroft va D. Trebek Lahor, Shrinagar, Ladak, Kobul va Qunduz orqali o`tadigan yo`lni bosib o`tgan edilar. Ular o`zлari bilan 5 ming funt sterling qiymatdagi savdo mollarini keltirganlar. Ular bilan kelgan ingliz savdogarları 70 kishidan iborat bo`lib, 80 sandiq turli Yevropa sanoat mollarini Buxoro qushbegisiga tortiq etganlar.⁸ Bu mollarning katta qismini koshenil tashkil etgan. Shuningdek, bu savdogarlar Buxoroning mashhur ot bozorlaridan golland dukatlariga arg'umoqlar sotib olganlar. Shu yo`l bilan ham golland dukatlari va grek draxmalar O`rta Osiyoga kirib kelgan.

1819–1825 yillarda Hindistondan Buxoroga Britaniya hukumati tomonidan maxsus topshiriqlar bilan V. Murkroft va G. Trebek ekspeditsiyasi yuboriladi. Ekspeditsyaning rasmiy maqsadi Ost-Ind kompaniyasining otliq askarlari uchun “zotli otlar axtarishdan” iborat edi. Haqiqatda esa, u Amurdaryo vodisiiga inglizlarning bosib kirishi mumkinligini aniqlash uchun yuborilgan razvedka qiluvchi ekspeditsiya edi. Ingliz josuslarini O`rta Osiyo hayvonot dunyosi emas, balki uning bozorlarida Angliya hukmronligini o`rnatish qiziqtirardi V. Murkroftaning olib kelgan hujjatlarini nashr etgani Vilson to`g`ridan-to`g`ri ko`rsatadiki, ekspeditsyaning maqsadi O`rta Osiyoda Rossiya savdosini butunlay bitirish to`g`ri kelmagan taqdirda, qisman bo`lsa-da, chek qo`yishdan iborat edi.³⁸ Villiyam Murkroft (1767–1825) ingliz sayohatchisi bo`lgan. U Ormskirk (Lenksheyr) da tavallud topgan. Murkrofting bolaligidanoq hayvonlarga qiziqlishi tufayli mahalliy katta yer egasi tomonidan Lionga veterenarlikdan tahsil olish uchun yuborilishiga sabab bo`lgan. U birinchi ingliz veterenar jarrohi bo`lgan. U o`qishni tamomlab, Angliyaga qaytadi va Londonda otlar uchun kasalxona ochadi. Britaniyadagi birinchi veterinariya kollejiga asos solnishiga ham yordam bergen. U hayvonlarga shu qadar qiziqqanki, xatto 1795-yilda otlarni da`voloash uchun yo`riqnomasi ham tuzgan.

1803-yilda Murkroft harbiy hizmatga qo`shilgan. Ost India kompaniyasi direktori Edvard Perry Murkroftning ish samarasini ko`rgach, uni Bengaliyadagi otlarni zotini yaxshilash markaziga yuborgan. 1808-yilda Murkroft Kalkutta ga yetib kelgan. U Hindistonga kelgach, Britaniya askarlari otlarining zoti pasayib ketganligini payqagan. 1811-yilda Murkroft Banorasga sayohat qilib, urchitish uchun mos keluvchi yaxshi ot izlagan. U bu yerdagi otlardan qoniqmagan. Ammo Banorasdaligida Buxoroning “Dunyodagi eng katta ot bozori” ekanligi haqidagi mish-mishlarni eshitib qolgan.

Murkroft Mir Izzatullo nomli eroniyni Buxoroga razvedka safari uchun yollagan. Bundan tashqari u yaxshi otlarni Tibetdan ham topish mumkinligini eshitgan. U dastlab Tibet bo`ylab sayohat qilgan. Ammo bu sayohat natijasida xech qanday zotdor ot naslini topa olmagan. Tibet bo`ylab sayohat qilib yurgan kunlaridan birida unga ikkita it tashlanib qoladi. Murkroft veterinar bo`lgani bois, bu ikki itlarni Yevropadan kelganligini darrov fahmlagan.

⁸Hultvall J. Mission and Revolution in Central Asia. Stockholm: Gummesson. 1981. –133 p.

Keyinchalik aholidan surishtirib, bu itlar rossiyaliklar tomonidan ancha avval olib kelganligini eshitgach, Kalkuttadagi Ost India kompaniyasi ma`murlarini Rossianing Markaziy Osiyoga intilishi haqida ogohlantirgan.

Rossianing birinchi bo`lib Markaziy Osiyo xonliklariga keyin, Hindistonga yurish qilish niyatida ekanligiga ishongan. U Kalkuttadagi rasmiylarni bu haqida ogohlantirib turgan. Ammo uni bu ogohlantirishlari Murkroftning o`limiga qadar e'tibor berilmagan. Murkroft bundan qariyb 500 yil avval Marko Polo tomonidan ta'rif berilgan Ahal Tekin otlarining tezlik va chidamdag'i dovrug'i haqida eshitgan edi.⁹ Murkroft 1816-yildayoq Buxoroga ot sotib olish uchun yo`lga chiqishni rejalashtirgan. Ammo Ost India kompaniyasi ma`murlari unga ruxsat bermagan. Murkroft o`z fikrida qattiq turib olgach, 1819-yil may oyida Ost India kompaniyasi siyosiy va maxfiy xizmatlar bo`yicha boshlig`i Charlz Metkalf unga Buxoroga sayohatga ruxsat bergen.

Murkroft Rossiya tomonidan Buxoroga yuborilgan josus N.Muravyov bilan bir yilda (1819-yil) ushbu davlatga yuborilgan. Murkroft g`arblik tarixchilar tomonidan ingliz – rus raqobati davrida Angliya tomonidan yuborilgan "Birinchi o`yinchi" edi. Rossiyalik tarixchilar tomonidan esa Ingliz diplomatiyasi 1558- yildayoq yuborilgan Antoniy Jenkinson Buxoroga elchilagini ko`rsatib, razvetka hizmati ancha avvaldan olib borilgan deb ta'kidlasalarda, Jenkinsonning faoliyati ingliz-rus raqobati davriga to`g`ri kelmasligi va uni Rus podshosining o`zi tomonidan yuborilgani sababli, uni josus sifatida tan olib bo`lmaydi.¹⁰ Murkroft boshqa Rossiya elchilari Negri, Meyendorf va olim Eversman bilan bir paytda Buxoroda bo`lgan. Metkalf Murkroftdan siyosiy josus sifatida ham foydalanmoqchi bo`ladi. Murkroft sayohatga tayyorgarligi bir yilga cho`zilgan bo`lib, Uni hamrohlari yaqindagina Kalkuttaga kelgan 19 yoshli Jorj Trebek va Jorj Gutri edi.

Ekspeditsiyada 16 ot va 4000 funt sterling qiymatiga tovarlar, doridaramonlar va qurollar bor edi. Bu tovarlar pichoq, to`pponcha va boshqa eng nodir mollardan iborat ediki, u rus mollarini ortda qoldirishini isbotlashi kerak edi. Negaki, Murkroftning maqsadi faqatgina ot olib kelish bo`libgina qolmay, balki Britaniya uchun imkon qadar shimalroqda bozorlar ochilishiga erishish ham edi. Biroq, Britaniya vakillari tomonidan Murkroftga hech qanday rasmiy maqom berilmagan. Agarda muammolar chiqqudek bo`lsa, Sankt Peterburg orqali xal etilishi lozim edi. Murkroft kutilmaganda Buxoroga Afg`oniston orqali emas, balki Buxoroning sharqi orqali kirib kelishni ko`zlaydi. Negaki, bu paytda Afg`onistonda fuqarolar urushi kechar edi.

Bundan tashqari, Murkroft shu orqali Hindistonning shimalidagi Ladakh va Sharqiy Turkistonga ham borishni va savdo imkoniyatlarini kengaytirishni ko`zlagan. U 1820-yil 24-sentabrda Ladakh markazi bo`lgan Lahor shaxriga yetib kelib, uni hukmdori bilan savdo shartnomasini imzolaydi. Bu shartnoma Britaniyaga Markaziy Osiyo uchun to`liq yo`l ochishga imkon beradi. Murkroft Ladakhda deyarli ikki yil turadi. U Ladakhda Transilvaniyalik Aleksandr Ksoma bilan uchrashgan. U bu yerda Tibet tilidan Vengriya tili o`zaklarini axtarayotgan taddiqotchiligin aytgach, unga Murkroft o`zining Tibet tili lug`atini bergen. Ksoma hech qachon o`z ilmiy ishini tugata olmagan bo`lsada, bu inson birinchi tibetshunoslikka asos solinishiga sababchi bo`lgan.

⁹ К. Нейман. Афганистан и англичане в 1841—1842 гг. М., 1848, —2956.

¹⁰ Kaye William. Lives of Indian Officers. London. A. Strahan and Co. 1867. — 205 p

Shu paytda kelib chiqishi eronlik bo`lgan Og`a Mehdi ismli Rossiya nomidan ish ko`rvuchi savdogar Sharqiy Turkiston va Ladakh hududida savdo karvonlarini tadtqiq qilayotganligini eshitgach, Murkroft Ladakhda ko`p qolmaydi.

Og`a Mehdi Sankt Peterburgga borib, Aleksandr I qabulida bo`lgan va unga ruscha Rafailov familiyasi berilib, Rossiya nomidan Kashmir va Ladakhga yuborilgan edi.¹¹ Murkroft sayohatini davom ettirib, 1822-yil 3-noyabr kuni Kashmirga, 1824- yil 4-iyun kuni Jalolobodga yetib kelgan.

U Amudaryodan o`tgan birinchi ingliz edi. Murkroft Amudaryodan o`tishidan 5 kun o`tgach, Qarshiga yetib kelgan. U Qarshida amirning ikkinchi o`g`li shahar noibi shahzoda Nasrullo bilan uchrashadi. Ajablanarlisi shundaki, Murkroft Nasrulloga kamdan kam beriluvchi ta`rifni bergen. U juda oz suhbat davomida shahzodaning yuzidagi doimiy kulgusi va jozibali mehmondo`stligini va samimiyl inson ekanligini qayd etgan. 1825-yil 25- fevral kuni Buxoroga kelgach, “Markaziy Osiyoning eng muqaddas shahri Buxorodagi minoralarning bexato tizim chizig`i” dan hayratlangan.¹² U Buxoroga kirib kelar ekan, o`z kundaligida shunday so`zlarni yozgan: ”Biz besh yildan beri xavf-xatarlarimiz va darbadarligimiz sababchisini topdik.

Biz shaxarga kirib kelishimiz bilan xavotirlangan mahalliy bolalar bizni o`rus, o`rus (ruslar, ruslar) deya chaqirishdi”. Murkroft keyin bilishicha, bundan to`rt yil avvalroq ruslarning elchilarini sovg`a salomlar bilan kelishgan va savdo imkoniyatlarda yutuqlarni qo`lga kiritishgan. Buxoro amiri Haydar uni yaxshi kutib olgan bo`lsada, Murkroftning Buxoroga tashrifi samarasiz edi. Bozorlar allaqchon rus tovarlariga to`lib ketgan edi. Inglizlar o`zlari bilan olib kelgan 80 sandiq turli mollar Buxoro qushbegisiga ko`rsatilgan. Bu mollarning katta qismini koshenil tashkil qilgan. Shuningdek, bu savdogarlar Buxoroning mashxur ot bozorlaridan golland dukatlariga arg`umoqlar sotib olganlar. Shu yo`l bilan ham golland dukatlari va grek dahmalari O`rta Osiyoga kirib kelgan.

Ammo, Murkroft o`zi orzu qilganidek otlarni Buxorodan topa olmagan. A. Muhammadjonovning fikriga ko`ra, u Amurdaryo vodiysiga inglizlarning bosib kirishi mumkinligini aniqlash uchun yuborilgan razvedka qiluvchi ekspeditsiya edi.

Ingliz josuslarini O`rta Osijo hayvonot dunyosi emas, balki uning bozorlarida Britaniya hukmronligini o`rnatish qiziqtirardi. Murkroftaning olib kelgan hujjatlarini nashr etgan Vilson to`g`ridan-to`g`ri ko`rsatadiki, ekspeditsiyaning maqsadi O`rta Osiyoda Rossiya savdosini butunlay bitirish to`g`ri kelmagan taqdirda, qisman bo`lsa-da, chek qo`yishdan iborat edi. Murkroft to`zi orzu qilgan otlarni Buxorodan topa olmagach va Buxoroning rus tovarlariga to`lib ketganidan so`ng uni xafsalasi pir bo`lib, tezda Buxorodan ketgan. Afg`oniston orqali ortga qaytishda, Balxda Murkroft Jorj Trebek va Jorj Gutrini qoldirib, janubi-g`arbdagi bir qishloqqa ot sotib olish uchun so`ngi umid bahonasida ularni tashlab ketib, shu bilan qaytib kelmagan.

¹¹ Кўпайсинов И. Антоний Женкинсонни Бухорога ташрифи // Тарих тилга кирганда..... Даврий тўплам. – № 10. – Наманган, 2017. – 239 б.

¹² Кўпайсинов И. Заҳириддин Мухаммад Бобур ва Херман Вамбери // Наманган давлат университети магистрантларининг илмий мақолалар тўплами. – Наманган, 2017. – 120 б.

¹³ Jorj Trebek va Jorj Gutri ham ozroq vaqtidan so`ng halok bo`lgan. Murkroft ma`lumotlariga ko`ra 1825-yil 27-avgustda Afg`oniston shimolida kasallikdan vafot etgan deb ishonilgan.

Biroq 1840-yil oxirlarida ikki fransuz missionerlari: Huk va Gabe Lhasaga tashrif buyurganlarida mahalliy aholidan qandaydir Murkroft ismli noma`lum kelib chiqishli insonni bu hududda o`n ikki yildan beri yashaganliginieshitib qolishgan. Ular Murkroftga tegishli 10000 dan ziyod qo`lyozmalar Markaziy Osiyo va Tibet xaritalarini topib olishgan. Fransuzlar bu paytga qadar Murkroft xaqida eshitmagan edilar. 1841-yilda Murkroftning qo`l yozmalari Osiyo Jamiyati tomonidan topilib H. Vilson muharrirrigida chop etilgan. Murkroft qo`lyozmalar Londonda nashr etilgach, kutilmagan sensatsiya bo`ladi. Uzoq yilluk tortishuvlar bo`lgan kashmirliklardan biri Murkroft vafot etgach, uni kundaliklarini o`zi bilan shu yerga olib kelgan deyiladi. Ammo ko`pchilik olimlar Murkroft olti yil davom etgan va ko`plab mablag` sarflangan Buxoro sayohati samarasiz yakun topgach, shuncha mablag` sarflangan sayohatni tashkillashtiruvchilar oldiga qaytib borishga g`ururi yo`l qo`ymagan.¹⁴ U Afg`onistondagi o`limini atayin yolg`on tashkillashtirgan. Murkroft yashirinchasida Tibetga ketib, bu yerda o`zini kashmirlik deb tanishtirgan va o`n ikki yil davomida, ya`ni to o`limiga qadar savdo bilan shug`ullangan. Shu tariqa Murkroft o`limi sirliligicha qoldi. Murkroftning urunishlari Shimoliy Hindistonda samarali kechgan bo`lsada, Buxoroni ingliz mollari bilan to`ldirish va bu yerdan zotdor otlarni olib kelish rejasidir muvaffaqiyatsiz yakun topgan.

XULOSA

XVI asrdan boshlab O`rta Osiyo hududiga xorijiy mamlakat vakillari (asosan ingliz, rus) kirib kela boshlashdi. Bu jarayon XIX asrda yanada jadallahish ketadi. O`rta Osiyo hududiga ingliz elchilarini kirib kelishi dastlab savdo va iqtisodiy manfaatlar, keyinchalik siyosiy maqsadlarga aylanganini ko`rshimiz mumkin. O`rta Osiyo bozorini egallab olish uchun dastlab ingliz elchilarini kirib kelishadi. Ularning maqsadi birinchidan, O`rta Osiyo bozoriga ingliz mahsulotlarini olib kirib, bozorni egallah va savdoni rivojlantirish, ikkinchidan, rus savdosini bu hududlardan siqib chiqarish va ularni obro`sizlantirish edi. Mana shunday maqsadlarni ko`zlagan holda xonliklar hududiga birin ketin ingliz elchilarini kirib keladi. Lekin bu jarayonlar XIX asrning 20 – 30-yillaridan o`zgara boshladi. Inglizlar endi O`rta Osiyo hududidga siyosiy maqsadlarni ko`zlab: bu hududlarni bosib olish va bu payrda xonliklar bilan yaxshi aloqada bo`lgan

ruslarga qarshi harakatlar yo`lga qo`yish kabi maqsadlarni amalga oshira boshlashdi. 1821–1825-yillar oralig`ida O`ra Osipyoga V. Murkroft, A. Byorns va boshqa shu kabi elchilar kirib keladi. Bu Buyuk Britaniya elchilarini Buxoro, Xiva xonliklariga kelib, qo`shbegi va boshqa amaldorlar bilan aloqa o`rnatishadi. Bu elchilar nafaqat savdo-sotiq ishlarini balki, ayg`oqchilik ishlarini ham amalga oshirishdi.

Ular O`rta Osiyo bozori bilan birgalikda xonliklarning siyosiy ahvolini chuqur o`rganishadi. V. Murkroft O`rta Osiyo xonligida muvaffaqiyatli faoliyat olib brogan bo`lsada, lekin aniq bir maqsadlarga erisha olmaydi.

¹³ Кўпайсинов И. Тарих – миллат кўзгуси. // Илмий тўплам. –Наманган, 2018. – 260 б.

¹⁴ Lazer Madeline. Why They Played: The British and Russian Motivations for Expansion in Nineteenth-Century Central Asia. Senior Honors Thesis. George Washington University. 2008. – 127 p.

Bundan farqli o`laroq A. Byorns o`z ishini a`lo darajada amalga oshiradi va juda ko`p, muhim ma'lumotlarni Buyuk Britaniya imperiyasiga yetkazadi.

Inglizlar tomonidan O`rta Osiyo xonliklariga yuborilgan elchilar va ularning harakatlari yuboriladigan keyingi elchilar uchun katta yordam berdi deb aytsam hech mubolag'a bo`lmaydi.

Bundan keyingi jarayonlarda ingliz elchilarini faoliyati yanada jonlanganini ko`rishimiz mumkin.

REFERENCES

- 1 Bondarevskiy G. L. The Great Game: A Russian Perspective. PO Box 35 Hastings. East Sussex, 2002. – 103 p.
- 2 Брежнева С. Н. “Цивилизаторская Миссия” Как Оправдательный Нарратив Наступления России На Туркестан В Трудах Русских Ориенталистов: Конец XIX – Начало XX В // Издательство “Грамота” № 8(14) 2011,- 45-46.
- 3 Evgeny Sergeev. The Great Game, 1856-1907: Russo-British Relations in Central and East Asia. Baltimore, MD. - John Hopkins University Press. 2014.–552 p.
- 4 Фурсов К.А. Геополитика или экономика? Соотношение целей англо-русской экспансии в центральной азии в xix в.// ВОСТОК (ORIENS) 2017 № 1. – 6-28.c.
- 5 Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – 590 p.
- 6 Халфин А.Н. Политика Росиии в Средний Азии (1847-1868). – М.: Издательства восточний литературъ, 1960. – 272 с.
- 7 XIAO WEI BOND. Guide to India Office Records relating to Central Asia.- The British Library Asia Pacific Africa Collections. 1998.-205 p.
- 8 Hultvall J. Mission and Revolution in Central Asia. Stockholm: Gummessons.1981.-133 p.
- 9 К. Нейман. Афганистан и англичане в 1841—1842 гг. М., 1848, –295 б.
- 10 Kaye William. Lives of Indian Officers. London. A. Strahan and Co., 1867. – 205 p.
- 11 Кўпайсинов И. Антоний Женкинсонни Бухорога ташрифи // Тарих тилга кирганда..... Даврий тўплам. – № 10. – Наманган, 2017. – 239 б.
- 12 Кўпайсинов И. Захириддин Мухаммад Бобур ва Ҳерман Вамбери // Наманган давлат университети магистрантларининг илмий мақолалар тўплами. – Наманган, 2017. – 120 б.
- 13 Кўпайсинов И. Тарих – миллат кўзгуси. // Илмий тўплам. – Наманган, 2018. – 260 б.
- 14 Lazer Madeline. Why They Played: The British and Russian Motivations for Expansion in Nineteenth-Century Central Asia.Senior Honors Thesis. George Washington University.2008. – 127 p.
- 15 Мартенс Ф.Ф. Россия и Англия Средний Азия. С. Петербург: – Эмиле Гарте.1880. – 234 с.